

KIMYOVIY PILING

Murodova Shahzoda Zafar qizi

Toshkent shahridagi Yeodju texnika instituti

E-mail: shakhzodamurodova86@gmail.com

ANNOTATSIYA

Hozirgi kunda kosmetologiya sohasida kimyoviy piling keng foydalaniladigan muolajalaridan biri hisoblanadi. Kimyoviy pilingni qo‘llash uchun metodologiya bu kimyoviy piling muolajalarining turlaridan kelib chiqib o‘tkaziladi. Ya’ni kimyoviy pilingning yuza, o‘rta va chuqur turlari farqlanadi. Hozirgi vaqtda kimyoviy piling muolajasining tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston sharoitida kimyoviy pilingning yuza va o‘rta turlari qilinadi. Lekin kimyoviy pilingning chuqur turi esa, biroz xavfli va jarrohlik operatsiyasini talab qilganligi uchun bizning mamlakatimizda ushbu turidan foydalanilmaydi.

Kalit so‘zlar: Jessper, “to peel”, kosmetik piling, mexanik piling, kimyoviy piling, yuzaki piling, o‘rta piling, chuqur piling, fototip, kosmetolog-dermatolog

CHEMICAL PEELING

ABSTRACT

Nowadays, chemical peeling is one of the widely used treatments in the field of cosmetology. The methodology for applying chemical peels is based on the types of chemical peel treatments. That is, there are surface, medium and deep types of chemical peeling. Currently, the research results of chemical peeling treatment show that surface and medium types of chemical peeling are performed in the conditions of Uzbekistan. But the deep type of chemical peeling is not used in our country, because it is somewhat dangerous and requires a surgical operation.

Key words: Jessper, “to peel”, cosmetic peeling, mechanical peeling, chemical peeling, peel off the surface, medium peel, deep peel, phototype, cosmetologist-dermatologist

O‘tgan asrning boshlarida bugungi kundagi kabi terini davolash, balki yuzni tiniqlashtirish uchun mo‘ljallangan piling muolajasidan foydalanilgan. Dastlab amerikalik shifokor Jessper tomonidan piling ixtiro qilingan. XX asrning boshlarida amerikalik shifokor Jessper kemada sayohatga chiqadi. Sayohat vaqtida esa yo‘lovchilarning badanida toshmalar paydo bo‘ladi. Shifokor ba’zi moddalardan suyuqlik tayyorlaydi va yo‘lovchilarning terisiga surtadi. Bu esa yaxshi natija beradi. Shundan so‘ng piling turlari kashf etiladi. Bugungi kunda piling ommaviy ravishda foydalaniladigan muolaja turi hisoblanadi. Lekin ko‘pchilik piling turlari va muolajaga qarshi ko‘rsatmalar haqida to‘liq ma’lumotlarni bilmaydi.

Piling inglizcha so‘zdan olingan bo‘lib, “to peel” — “archish”, “ko‘chirish” yoki “yuza qavatni olib tashlash” degan ma’noni anglatadi. Qisqacha qilib aytganda piling terining ustki qatlamini, ya’ni, hujayralari nobud bo‘lgan terini olib tashlash jarayoni hisoblanadi. Piling muolajasidan so‘ng teri yangilanadi va yosharadi. Natijada, teridagi nuqsonlar, yuzaki va mayda ajinlar hattoki dog‘lar ham yo‘qolishi mumkin. Zamonaviy kosmetologiya sohasida pilingning kosmetik, mexanik va kimyoviy turlari mavjud. Umuman olganda pilingning maqsadi yangi to‘qimalarni tezroq yetiltirish hisoblanadi. Kimyoviy piling muolajalari 3 turga bo‘linadi:

- Yuzaki;
- O‘rta;
- Chuqur.

Yuzaki pilingni asosan o‘smirlarga yoki balog‘at yoshiga yetgan ya’ni 20 yoshdan kattalarda o‘tkaziladi. Ushbu piling turli xildagi husnbuzarlarni hattoki ulardan keyin qolgan dog‘larni ketkazishi mumkin. Shuningdek yuzaki piling yog‘li terilar uchun ham qo‘llaniladi. Qisqacha qilib aytganda bu piling turi 25-30 yoshli odamlarga chandiq izlarini yo‘qotish va boshqa holatlarda ishlatiladi.

O‘rta piling esa 35-40 yoshdagilarga mo‘ljallangan. Ushbu piling turli xildagi muammolarga qarab, asosan chuqur chandiqlar, ajinlar va dog‘larni ketkazish uchun qo‘llaniladi. Shuningdek homiladorlik vaqtida yuzga chiquvchi dog‘larni ham yo‘qotadi. Lekin iloji boricha piling qildirishdan oldin yaxshilab tekshirtirish va kosmetolog-dermatolog maslahatini olish zarur.

Chuqur piling faqat operatsiya orqali amalga oshiriladi. Ammo yurtimizda bu usuldan deyarli foydalanilmaydi. Piling muolajasi homilador va emizikli ayollarga, qonida gerpetik infeksiyalari yuqori darajada bo‘lgan kishilarga, gripp yoki infeksiyon kasalliklar bilan og‘riganda, tana harorati oshganida, terida ochiq jarohatlar va turli holdagi jarohatlar bo‘lganida sachratqi, teri yallig‘lanishi kasalligi bo‘lganda taqiqlanadi. Yoz va bahor oylarida o‘rtacha piling qilish taqiqlanadi. Hattoki yuzaki pilingni ham, avvalo, yuzga quyoshdan saqlovchi krem vositalarni surib, keyin qilish kerak. Bu esa kosmetolog-dermatolog nazoratida ostida amalga oshiriladi.

Inson terisi 4 turda bo‘ladi. Bular fototip deyiladi. 3 va 4-fototiplarga piling mumkin emas. Shuningdek, finol tarkibli piling qon tomir tizimi va yurak, buyrak, jigar a‘zolari kasalliklarida, qandli diabet kasali borlarga, so‘gal kasalliklarida ham taqiqlanadi. Ba‘zi terilarning sezuvchanlik darajasi yuqori bo‘lishi mumkin. Va ularga ham kimyoviy piling mumkin emas. Avval terning sezuvchanligini aniqlovchi test qilinadi, so‘ngra, kosmetolog-dermatolog maslahatini olish tavsiya etiladi. Umuman olganda, onkologik xastalikka chalinganlarga esa kimyoviy piling qat‘iyan man etiladi.

Piling kimyoviy tarkibidan kelib chiqqan holda kosmetolog-dermatolog tomonidan bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Avval, kosmetolog yuz sohasini tozalaydi va barchasi bosqichma-bosqich bajariladi. Dastlab, mijoz yuzida biroz achishishni his qilishi mumkin. Bunda teri pushti rangga kiradi. Muolaja oxirida suv yoki maxsus suyuqlik bilan mijozning terisi yuviladi. Pilingning turlariga qarab, ba‘zi kosmetolog-dermatologlar maxsus tinchlantiruvchi niqoblarni tavsiya etishadi. Muolaja amalga oshirilgach, albatta, quyoshdan saqlovchi vositalarni surish kerak. Agar bunga amal qilinmasa, yuzda dog‘ qolib ketishi mumkin. Pilingdan keyin ham,

kosmetolog-dermatolog nazoratida bo‘lish tavsiya etiladi. Terini oziqlantirib turuvchi vositalardan foydalanish mumkin.

Kimyoviy piling muolajasini bajargan kundan boshlab 10 kun davomida quyoshdan saqlanish zarur. Piling muolajasi teri yuzasida amalga oshirilgani sabab, ichki a’zolarga o‘z ta’sirini ko‘rsatmaydi. Umuman olganda inson terisi har 28 kunda yangilanadi. Iloji boricha quyoshdan saqlangan holda, har 1 oyda 1 marta pilingni amalga oshirish mumkin. Shuningdek, yuzaki pilinglarni esa 2-3 haftada kosmetolog-dermatolog nazoratida bajarish maqsadga muvofiq.

Bugungi kunda go‘zallik salonlarida noto‘g‘ri qilingan piling tufayli shifoxonalarga tashrif buyuruvchilarning soni ko‘paymoqda. Chunki pilingni bilib-bilmay turib mutaxassis bo‘lmagan odamlar tomonidan amalga oshirish avj olmoqda. Kimyoviy piling qildirmoqchi bo‘lgan har bir inson, avvalo, kosmetolog-dermatologning bilim darajasini bilishi va kerakli tavsiyalarni olishi maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Dermatology, American Academy (2004). "Combination of therapies offer new management options for acne and rosacea". American Academy of Dermatology.
2. Hill r.n., Pamela (2006). Milady’s Aesthetician Series. Peels and Peeling Agents. Clifton Park, NY: Thomson Delmar Learning. pp. 6. ISBN 1-4018-8177-7.
3. Issa, Maria Claudia Almeida; Tamura, Bhertha, eds. (2016). Chemical and Physical Peelings. doi:10.1007/978-3-319-20252-5. ISBN 978-3-319-20252-5.